


“TASDIQLAYMAN”
Toshkent shahridagi Inha
universiteti yoshlar masalalari va
ma’naviy-ma’rifiy ishlari
bo’yicha birinchi prorektor
T. Tursunmuratov



« 11 » dekabr 2025-yil

“Cyber Guard CUP2025” kiberxavfsizlik xakatonini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

Toshkent shahridagi Inha universitetida 2025-yil 22-23-dekabr kunlari axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohasini ommalashtirish, shuningdek, universitetlar talabalari orasida axborot xavfsizligiga bo‘lgan amaliy qiziqish va ko‘nikmalarni oshirish, axborot xavfsizligi madaniyatini mustahkamlash maqsadida “Cyber Guard CUP 2025” xakatonini o‘tkazishni rejalashtirmoqda. Xakaton CTF (Capture The Flag) formatida o‘tkazilib, unda ishtirokchilar kiberhujumlarni aniqlash, ularga javob berish va axborot tizimlarini himoya qilish bo‘yicha real amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Xakatonidan maqsad kiberxavfsizlik yo‘nalishiga qiziqadigan turli universitet talabalari uchun o‘z salohiyatini namoyish etish, amaliy tajriba orttirish va yangi imkoniyatlarga ega bo‘lishlari uchun qulay maydon yaratishdan iborat.

1.2. Xakatonida faqat bir universitet talabalaridan iborat bo‘lgan jamoalar ishtirok etishlari mumkin.

1.3. Xakatonida ishtirok etish mutlaqo bepul.

1.4. Har bitta jamoa tarkibida 3 nafardan 5 nafargacha talaba ishtirok etishi mumkin.

1.6. Tanlovda faqatgina oldindan o‘z universitet nomidan ro‘yxatdan o‘tgan talabalar ishtirok eta oladi.

1.7. (Muvofiqlik mezonlari) Ishtirok etish huquqiga ega bo‘lish uchun talabalar:

- Oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat talabalari bo‘lish;
- Texnologiya, informatika, kiberxavfsizlik yoki tegishli yo‘nalishlarda asosiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

1.8. Tanlovda faqatgina oldindan ro‘yxatdan o‘tgan jamoalar ishtirok eta oladi. Ishtirokchi talabalar shaxsni, talabaligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek universitet (talaba uchun taqdim etilgan korporativ) emaili asosida ro‘yxatdan o‘tishlari kerak. Ro‘yxatdan o‘tish jarayonida yolg‘on va to‘liq bo‘lmagan ma’lumot kiritgan jamoa musobaqadan chetlatiladi.

1.9. Musobaqa Oflayn (Offline) formatda o‘tkaziladi

1.10. Ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida turli guruhlarda qatnashishi qat’iyan taqiqlanadi

1.11. Ishtirokchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

- Hakamlar hay’ati serverlariga va avtomatlashtirilgan xizmatlarni qo‘llab quvvatlash hamda yechimlarni tekshirish tizimga hujum qilish.
- Asossiz katta miqdordagi trafikni yaratish, xizmatni rad etish (DoS va DDoS)

hujumlarini uyushtirish, CTF platformasining ishchan holatiga ta'sir qiladigan barcha harakatlar taqiqlanadi.

- Ishtirokchilar yoki Jamoalar o'rtasida kalit so'zlar ulashish, almashish yoki nashr qilish qat'iy man etiladi.
- CTF kalit so'zlarni qabul qilish tizimining zaifliklaridan har qanday maqsadda foydalanish.
- Bir nechta akkauntidan foydalanish.
- Belgilanganlardan boshqa har qanday mashinaga hujum qilish.
- Hisob jadvalini o'zgartirish.
- Boshqa ishtirokchilar yoki jamoalarning kalit so'zlarni topishiga qasddan to'sqinlik qilish.
- Ushbu qoidalarini buzgan har qanday ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi va kelgusi tadbirlarda qatnashishi taqiqlanishi mumkin.
- Ishtirokchilar tanlov rasmiy yakunlanmaguncha vazifalar va ularni yechimi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

1.12. CyberKent2025 tadbirining "Blue" va "Red" yo'nalishlarida birinchi 10 ta o'rinni egallagan talabalar Tanlovda ishtirok eta olmaydi.

1.13. Ishtirokchilar axloq kodeksiga rioya qilishlari kerak. Qoidalarini buzgan jamoani tashkilotchi diskvalifikatsiya qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

1.14. Musobaqa tugagandan so'ng apellatsiyalar qabul qilinmaydi.

2. Musobaqada ishtirok etish qoidalari

2.1. Xakaton davomida tanlov jarayonini shaffof o'tkazish va yakuniy natijalarni aniqlash, shuningdek g'olib jamoalarni belgilash uchun hay'at a'zolari tuziladi. Hay'at a'zolari xakaton tashkilotchilari va homiy vakillaridan iborat bo'lishi kerak;

2.2. Har bir ishtirokchi yoki jamoa ishtirokchilar ro'yxatini, nomini va jamoa sardorining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi lozim.

2.3. Musobaqa davomida aloqa uchun kiritilgan bog'lanish manbalari (Telefon raqami, Email) faol bo'lishi shart.

2.4. Toshkent shahridagi Inha universitetining Odob-axloq kodeksi qoidalariga rioya qilishi;

2.5. Boshqa ishtirokchilar va jamoalarga nisbatan hurmatli bo'lishi, hech qanday tajovuz, kamsitish yoki norozilikka sabab bo'ladigan harakatlarga yo'l qo'ymasligi;

3. Tanlov jarayoni va baholash mezonlari

3.1. Tanlov jarayoni xakaton davomida CTF platformasi orqali amaliy topshiriqlarning bajarilishini kuzatish, jamoalarning ballarini avtomatik hisoblash, ularning reytingini haqiqiy vaqt rejimida yangilash va g'oliblarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

3.2. Ishtirokchilar yuqorida keltirilgan yo'nalishlarga tegishli bo'lgan topshiriqlarni, belgilangan tartibga qarab jamoa tarkibida bajarishlari zarur.

3.3. Har bir topshiriqda ishtirokchilar kalit so'zlarni topishlari va platformaga tekshirish uchun kiritishlari lozim bo'ladi.

3.4. Ishtirokchilar tomonidan kiritilgan kalit so'zlar platformadagi kalit so'zlar bilan mos tushganda to'g'ri deb topiladi.

3.5. Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra turli ko'rinishda baholanadi. Topshiriq uchun beriladigan ballar har bir topshiriqda yozilgan bo'ladi.

3.6. Ishtirokchilar yoki jamoalarning topshiriqlarini bajarishdagi natijalari va yig'ilgan ballarining monitoringi ko'rish imkoniyati yaratiladi.

3.7. Topshiriq ishtirokchi yoki bir jamoa tomonidan to'g'ri bajarilgan taqdirda, ushbu topshiriq uchun ajratilgan ball ikkinchi ishtirokchi yoki jamoa uchun ma'lum ball qiymatga pasayadi (Masalan 1- ishtirokchi/jamoa 1- topshiriqni to'g'ri bajarsa 200 ball, undan keyin 2- ishtirokchi/jamoa 1- topshiriqni to'g'ri bajarsa 190 ball beriladi).

3.8. Topshiriqning murakkablik darajasiga ko'ra maslahat (hint)lar bo'lishi mumkin. Maslahatlar bepul yoki ball (point) evaziga bo'lishi mumkin. (Masalan: ishtirokchi/jamoa biror topshiriqni bajarish uchun qiynalayotgan bo'lsa maslahat(hint) bo'limidan bepul yoki ma'lum ball evaziga maslahat olishlari mumkin).

3.9. Ba'zi topshiriqlarda har bir ishtirokchi/jamoa uchun alohida bayroqlar shakllantiriladi. Bir ishtirokchi/jamoa uchun berilgan bayroqni boshqa ishtirokchi/jamoa tizimga kiritisa ikkala ishtirokchi/jamoa uchun ham ballar ayrilishi mumkin.

3.10. Musobaqa yakunlanishidan 30 daqiqa oldin, ballar jadvali muzlatiladi (freez time), testkari sanoq boshlanadi. Testkari sanoq tugaganda ballar jadvalidagi o'zgarishlar yangilanadi va musobaqa tugatiladi.

3.11. Vaqt bo'yicha natija – ballar teng bo'lganda, topshiriqlarni tezroq bajargan jamoaga ustunlik beriladi;

3.12. Musobaqa yakunida eng yuqori ball olgan 3 ta ishtirokchi/jamoa g'olib deb topiladi.

3.13. Yuqorida ko'rsatilgan xakaton qoidalarini buzgan jamoalarga jarima yoki diskvalifikatsiya qo'llanilishi mumkin.

4. Tashkilotchilar va homiy

4.1. (Xakaton homiyligi)

Xakatonning o'tkazilishiga homiylik qiluvchi tashkilotlar quyidagilarni moliyalashtiradi:

- Xakatonning tashkiliy xarajatlari (joy, texnika, platforma va texnik qo'llab-quvvatlash);
- G'olib jamoalar uchun mukofotlar va sertifikatlar.

4.2. Xakatonning asosiy homiysi – OneSec kompaniyasi bo'lib, u tadbirni moliyaviy jihatdan to'liq ta'minlaydi.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik Markazi xakaton jarayonlarini texnik va metodik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, savol va topshiriqlarni ishlab chiqish, jarayonlarni muvofiqlashtirish va tadbirning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashda faol ishtirok etadi.

4.4. Toshkent shahridagi Inha universiteti Xakaton o'tkazish barcha tashkiliy masalalarni o'z zimmasiga oladi va tadbir uchun joy va tegishli jihozlarni ta'minlaydi.

5. Yakuniy qoidalar

7.1 Ushbu nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va faqat "Cyber Guard CUP2025" kiberxavfsizlik xakatonini dasturiga taalluqli hisoblanadi. Bu yerda ko'rsatilmagan masalalar Toshkent shahridagi Inha universitetining ichki qoidalari va qoidalari bilan tartibga solinadi.